



## TARJIMADA GRAMMATIK KATEGORIYALARNING IFODALANISHI

**Madixonova Orasta Otabek qizi**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7588304>

### ARTICLE INFO

Received: 21<sup>th</sup> January 2023

Accepted: 30<sup>th</sup> January 2023

Online: 31<sup>th</sup> January 2023

### KEY WORDS

Matn, tarjima leksika, atama, ibora, o'zbekcha va nemischa so'zlar, frazeologik iboralar, grammatik ma'no, grammatik kategoriyalar.

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada tarjimada grammatik kategoriyalarning o'rne va badiiy tarjimada qo'llash funksiyalari masalariga bag'ishlanadi. Bundan tashqari ushbu maqolada yozuvchi Johann Wolfgang Goethe tomonidan yozilgan Erkin Vohidov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan "Faust" asari ham bir muncha tahlil qilingan.*

Bugungi kunda zamonaviy globallashuv va madaniyatlararo aloqalarning jadal rivojlanishi, xalqaro aloqalarni kengayib borishi, davlatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarning rivojlanishi, yevropa mamlakatlari va butun dunyoning integrallashuv jarayonining kuchayib borishi, fan va texnologiyalarning rivojlanishi, ilmiy va texnikaviy ma'lumotlarning doimiy ravishda uzviy almashib borishining samarali omillari sifatida hozirgi kunda chet tillarining ahamiyati katta e'tiborga sazovordir. Shuningdek, iqtisodiy, ilmiy - texnikaviy va madaniy taraqqiyot bosqichida chet tili dunyoning turli xalqlar vakillari o'rtasida og'zaki va yozma aloqa vositasi sifatida keng qo'llanilib kelinmoqda.

Bilim va texnologiyalar jadal rivojlanishi oqibatida zamonaviy davr jamiyatida barcha jihatlarni qamrab olgan holda va zamonaviy iqtisodiyot o'zgarib borayotgan sharoit davrida, shuningdek, turli xil sohalariga tegishli ilmiy va texnik matnlarni tarjima qilishda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan tarjimonlar amalga oshirishdi.

Mustaqillik davri o'zbek adabiyotida barcha tur va janrlar qatori badiiy tarjima amaliyotida ham o'sish-o'zgarishlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Ayniqsa, aslyat tilidan tarjima izga tushayotgani quvonarli hol. Bu borada yoshlarning o'z iqtidorini sinovdan o'tkazayotgani, Sharq va G'arb xalqlari adabiyoti namunalarini bevosita ona tilimizga o'girishga dadil kirishayotgani katta umid uyg'otadi. Ayni paytda o'zbek adabiyoti durdonalarini xorijiy tillarga tarjima qilish bobida ham yoshlar yaxshigina tashabbus ko'rsatmoqda. O'zbek adabiyoti namunalarini chet tillariga, jahon adabiyoti sara asarlarini ona tilimizga munosib tarzda tarjima qilib taqdim etishdek sharaflil vazifa bugungi navqiron avlodning iqtidori, g'ayrat-shijoatiga bog'liqligi sir emas. Davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan vazifalar, "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch", "Adabiyotga e'tibor — ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" kitoblarida aytilgan fikr-mulohazalar, tavsiyalardan kelib chiqsak, bugungi adabiy jarayonda badiiy tarjimaning o'rne, tarjimashunoslik, tarjima tanqidi



sohalaridagi yutuq va kamchiliklarni tahlil, talqin etish, muayyan xulosalar chiqarib olish kun tartibidagi muhim vazifalar sirasidan ekaniga iqrar bo'lamiz.

XX asrga qadar "tarjima" so'zi faqat tarixiy, falsafiy, adabiy va badiiy asarlar o'girmasiga nisbatan qo'llanib kelingan. Og'zaki tarjimonga nisbatan esa turkiy xalqlarda "tilmoch", nemis tilida "dolmetschen", ingliz va fransuz tillarida "interpret" atamaları qo'llanilgan. Tarjima nazariyasi xususida aytilgan fikrlar ham shu yo'sinda umumiy ma'no kasb etgan.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng o'tgan yigirma ikki yil davomida badiiy ijodning barcha sohalarida bo'lgani kabi tarjima nazariyasi va amaliyotida ham o'zgarish va yangilanishlar ro'y berdi. Prezidentimiz tashabbusi bilan tarjima va tarjimashunoslar minbari "Jahon adabiyoti" (1997) jurnali tashkil etilib, o'z faoliyatini boshladi. Atoqli adabiyotshunos olim va tarjimon Ozod Sharafiddinov boshchiligida ushbu jurnalda dunyo adabiyotining eng sara asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinib bosildi. Eng muhimi, jurnal tahririyati aslyatdan tarjima amaliyotiga keng yo'l ochib berdi. Ayni paytda "Jahon adabiyoti" jurnalida tarjima nazariyasi va tanqidiga doir mazmunli maqola hamda suhbatlarning bosilayotgani ijod va ilm ahliga manzur bo'lmoqda. Men ham mavzu yuzasidan ayrim asarlardagi Grammatik kategoriyalarni o'zbek tiliga tarjima qilinganda qanday muammolar bo'lgani haqida ko'rib chiqdim. Men Johann Wolfgang Goethening "Faust" asarini o'rganib chiqdim. Ushbu tadqiqot uchun "Tarjimonlik terminlarining ko'p tilli lug'at ma'lumotnomasi" qo'llanmasidan foydalanildi. Morfologiya so'z turkumi, Grammatik ma'nolarni, har bir turkumga xos Grammatik kategoriyalar, bu kategoriyalarni yuzaga keltiruvchi Grammatik shakl va Grammatik ma'nolarni o'rganadi. Ushbu asarning 30 gaplari morfologik tahlil qilindi. Ulardan 73 tasi ot, 38tasi fe'l, 15-16 ta so'z ravish, olmosh, sifatdan iborat. Asarni tahlil qilish jarayonida ko'pchilik sifatlar o'z ma'nosida emas boshqa ma'noda qo'llangani meni hayron qoldirdi.

T/r	Leksemalar	Morfologik tahlil
1.	Jeder (har bir)	Belgilash olmoshi
2.	Hell (yorug')	Sifat
3.	Und (va)	Bog'lovchi
4.	Kleidung (kiyim)	Ot
5.	Oft (tez tez)	Ravish
6.	Schön (chiroyli)	Sifat

Bu asarda Grammatik kategoriyalarning o'rni beqiyos. Men bu asarni o'zbekchasi va nemischasini ham qiyosladim. Qiyoslash mobaynida ikkila tildagi bir xil asarda farqlar borligini bilib oldim. Negaki Erkin Vohidov bu asarni nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima qilmagan. Bu asarni ruschadan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Shu sababli shunaqa holat yuz bergan.

Tarjima kompetensiyasining mohiyati va tuzilishini tahlil qilish bizga tarjima kmpetensiyasining tarjima faoliyati predmeti, kasbiy madaniyatlararo muloqot sharoitida tarjima faoliyati predmetini amalga oshirishga tayyorgarlik ko'rishni ta'minlaydigan maxsus



fan bilimlari, ko'nikmalari va malakalari haqidagi g'oyalarning uzviy to'plami sifatida aniqlash imkonini beradi.

**References:**

1. Saidumar saidaliyev "Chet tilini o'qitish metodikasidan" Namangan 2004
2. Islom Karimov "Yuksal ma'naviyat - yengilmas kuch" Toshkent 2008
3. Yohann Wolfgang Goethe "Faust"
4. Erkin Vohidov "Faust" nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima.